



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

## БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

# МАТЕРИАЛЛАРИ



19-oktabr 2021-yil

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ**  
**УНИВЕРСИТЕТИ**

**МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ**

**БУХОРО МУСИҚА**  
**ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-**  
**НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ**  
**МАСАЛАЛАРИ**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**19 октябрь**

**Бухоро - 2021**

## O`ZBEK XALQ QO`SHIQLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI

N.K. Nurullayeva, BuxDU 2 bosqich magistranti

Ilmiy rahbar Do`stov S.D BuxDU dosenti, p.f.n

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`zbek xalq qo`shiqlari tarixiy shakllanishi, bosqichlari, xalq musiqasining janrlari, mahalliy kuy - uslublar haqida bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** Qo`shiq, musiqa, kuy, folk`lor, alla, lapar, terma, yalla.

O`zbek qo`shiqchilik san`atining tarixi juda ko`xna bo`lib, u insoniyatning shakllanish jarayoni bilan bog`liqdir. Xalq qo`shiqlari ajdodlarimizning ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, turli tabiat hodisalariga taqliddan ijro etilgan marosim kuylari va aytimlariga, ular bilan bog`liq o`yin va harakatlariga borib taqaladi. Shu bois musiqa san`atining eng qadimiy namunalari tashqi olamdan olgan ta`sirchanlik taassurotlari bilan bog`liq holda yuzaga kelgan va inson tafakkuri orqali yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san`at turiga aylangan. Xalq qo`shiqlarida xalqning hayoti, tarixi, kurashi, falsafasi, dunyoqarashi, turli hodisalarga bo`lgan munosabatlari, insoniy fazilatlari o`z aksini topgan. Xalq qo`shiqlarida insonning ruhiy olami ichki kechinmalari, turmushida sodir bo`luvchi ko`ngilli va ko`ngilsiz voqealar ,g`am-anduh yoki shodligi xurramliklari ,mexnat mashaqqatlari ,sevgi iztiroblari his-tuyg`ular orqali aniq badiiy obrazlarda gavdalandiriladi.

Qo`shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`atit turk” asarida qo`shiq shaklida berilgan bo`lib, bu so`zning izohi she`r ,qasida deb ko`rsatilgan. Shuningdek “qo`shiq” so`zini Yusuf Xos Xojibning “Qutadg`u bilig” asarida, XII asrda yozilgan Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatul –adab “ lug`atida ham shu ma`nolarda uchramiz. Hususan Alisher Navoiyning “Mezonul-avzon” va Zahiriddin Boburning “Risolai aruz” asarlarida qo`shiq so`zi surud, ayolg`u, lahn, turki tarona ,asula, o`lan, chipga nomi bilan ham tarqalgan., ular qo`shiqning turli janrlarini atash uchun qo`llanilgani bayon qilinadi.

XVI-asr Musiqachi-shoiri, shuningdek, musiqa ilmining bilimdonlaridan Sharq Aristoteli, muallimi soniy (ikkinchi muallim) deb nom olgan ulug` bobomiz Abu Nasr Farobiy ilmlarning kelib chiqishi haqidagi “Ixsoi ulum” asarida musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar borasida to`xtalib, jumladan shunday deydi. Bu ilm shu ma`noda foydaliki, u o`z muvozanatini yo`qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi. Mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo`lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo`lsa rux ham so`nadi, tana to`siqqa uchrasa ruh ham to`siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta`siri bilan ruhni sog`aytirish yordamida tana sog`aytiriladi, rux esa o`z kuchlarining tartibga solinish vasubatansiyasiga moslashtirilishi orqali sog`ayadi”. Forobiy «Musiqahaqida katta kitob» degan ko`p jildli asari bilan o`rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur qozongan. Forobiy musiqa nazariyasida tovushlar vujudga kelishining ilmiy ta`rifini beribgina qolmay, kuylar garmoniyasining matematik prinsiplarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko`plab murakkab chizmalarkeltirib, u sharq musiqasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab bergan.

Forobiy musiqani inson tarbiyasiga ta`sir qiluvchi omillardan biri deb bildi. Forobiyning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab

chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi. Forobiyning o'zi mohir sozanda, bastakor, manbalarda yangi musiqa asbobini ixtiro etganligi, unda nihoyatda ta'sirchan kuylar yaratgani qayd etiladi. Forobiy musiqa inson axloqini tarbiyalovchi, sihat salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega. Musiqa ilmiga oid masalalar Ibn Sinoning ko'plab asarlarida o'z ifodasini topadi.. Masalan, Ibn Usayba tilga olgan «Madhal san'ati al musiqa» («Musiqa san'atiga kirish»), Ibn Sinoning o'zi «Shifo» kitobida qayd qilgan Kitob al lavoxiq ( «qo'shimchalar kitobi») kabi musiqa oid asarlar hanzugacha fanga ma'lum emas. Ibn Sinoning musiqiy nazariy merosi asosiy yirik qomusiy asarlari orqali bizgacha yetib kelgan; jumladan, «Shifo» kitobining «Javomi ilm al musiqa» («Musiqa ilmi yig'indisi») deb nomlanuvchi bo'lagi; «Najot» kitobining Muxtasar ilm al musiqa («Musiqa ilmi haqida qisqacha ma'lumot»); «Donishnoma»ning musiqa oid qismlari; bundan tashqari, Ibn Sinoning boshqa fanlarga bag'ishlangan «Tib konunlari» va «Ishq risolasi» kitoblarida ham musiqa tegishli ma'lumotlar berilgan.

Najmiddin Kalkabiy Buxoriy ijodi ilmiy davrlarda katta qiziqish uyg'otadi. Uning «Musiqa haqida risola» si ustoz an'analarini Samarqand va boshqashaharlarda davom ettirgan shogirdi (Xoji Muhammad, mavlono Rizo Samarqandiy) uchun musiqali poetik qo'llanma bo'lgan edi. XVII-asrning saroy musiqachi va nazariyotchisi Darveshali Changi edi. Uning risolasi musiqa oid fikrlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Muallif boshqalardan farqli holda faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan bir qator musiqachilar faoliyati, shuningdek, saroyda mavjud bo'lgan musiqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi.

O'tmishda o'zbek elida ko'p xonliklar bo'lib, har qaysi xonlik o'z sozanda va xonandalariga ega bo'lgan. Shuning uchun xalq qo'shiqlari har bir vohada mustaqil o'z yo'nalishiga ega bo'lgan. Toshkent va Farg'ona kuy va qo'shiqlari Xorazm vohasidagi kuy va qo'shiqlardan, Buxoro qo'shiqlari Toshkent qo'shiqlaridan yoki Toshkent va Farg'ona vohasidagi «Katta ashula» boshqa vohalarda yo'qligi so'zimiz isboti bo'la oladi. Agar Toshkent, Farg'ona, Xorazm qo'shiqlari o'rta diopozonga ega bo'lgan musiqiy asarlar bo'lsa, Buxorodagi 'xalq qo'shiqlari' keng diopozonga ega bo'lgan musiqiy san'at bo'lgan. Bu hududlarda mahalliy uslublarning paydo bo'lishi, ma'lum etnik birlik hamda umumijtimoiy-iktisodiy sharoitning natijasidir. O'zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo va Qashkadaryoning katta qismi respublikaning boshqa o'lkalaridan farqli ularoq yaqin o'tmishda ham, asosan, chorvachilik, faqat bir qismigina dehqonchilik bilan shug'ullanib, ko'chmanchi holda hayot kechirar edi. Bu viloyatlar musiqa folklorida chorvadorlar mehnati haqida, o'tmishda esa ko'chmanchilik hayoti to'g'risidagi qo'shiqlarning xarakterli o'rni egallashi hamshundan kelib chiqqan. Bu hudud musiqa xayotida doston ijrochilari – baxshilar maim o'rin tutadi. Buxoro va Samarqandda o'zbek musiqasana'atining xususiyatlari deyarli boshkacharoqdir, bu xususiyatlar meros tematikasi va janrlari hamda musiqa hayoti tamoyiliga taalluqlidir. Buxoro va Samarqand lokal uslubi xususiyatlarining muhim farqi – bu yerda musiqa merosi va ijrochiligining ikki turga – og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa va folklor janrlariga bo'linishida, ya'ni musiqa merosida qadim davrlardan boshlab professional musiqaning shakllanib rivoj topganidadir. Buxoro va Samarqand viloyatlariga xos bo'lgan musiqa folklori ko'p jihatdan tojik xalq musiqasi bilan umumiylikka ega bo'lib,

tarixiy taqdiri deyarli bir xil bo'lgan har ikkala qardosh xalq, ya'ni o'zbeklar va tojiklarning babbaravar darajadagi musiqiy merosi hisoblanadi. Jumladan Shashmaqom bunga yorqin misol bo'la oladi. Ana shunday turkumlardan biri Buxoroda yaratilib, Samarqandda va boshqa ayrim viloyatlarda ijro etilayotgan "Buxorcha" va "Mavrigi" ashula va raqs turkumidir. Buxoroyi Sharif nafaqat "Shashmaqom"ning, balki shu qutlug' yurt nomini sharaflovchi "Buxorcha" hamda "Mavrigi" singari xalqona ashulalari raqslardan tarkib topgan bebaxo musiqiy turkumlarning vatani sifatida ham mashhurdir. Bunday turkumlardan "Buxorcha" va "Mavrigi"lar quyidagi tarkibiy tuzilishlarga ega.

Mazkur qo'shiqlar yaratilish tarizi uzoq tarixga borib taqaladi. Ushbu bu qo'shiqlar asosan xalq yig'inlari, to'ylar va boshqa tadbirlarda ijro etilib, ularning birinchi kismi, ya'ni "Buxorcha"lar "Buxoro zang qo'shiqlari" nomi bilan ham mashhurdir. Qashqadaryo-Surxondaryoda – asosan doston va xalq qo'shiqlaridan iborat bo'lgan uslublar mavjud bo'lib, xonanda va baxshilar tomonidan ijro etiladi.

Xorazmda esa, doston ijrochilik uslubi bo'lib ular hofizlar va xotin-qiz xalifalar ijrosida Tor va Garmon sozlari jo'rligida kuylanadi. Farg'ona-Toshkent vohalarida esa katta ashula, dostonlar va tanavor, Nasrullovi singari turkumlar mavjud bo'lib ular Xofiz va ayol xonandalar tomonidan jo'rsiz, ansambl, shuningdek, yakka doyra sozi jo'rligida ijro etiladi. O'zbek xalq musiqasining mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rining xilma-xilligi ham ana shu bilan bog'liqdir.

«**Yor-yor**» qo'shiqlari o'zbek nikoh to'ylari fol'klorining musiqiy janri hisoblanadi. Uning paydo bulishi, janr tabiati va atamasi, qo'shiqning semantikasi haqida o'zbek folklorshunosligida ko'pgina fikrlar bayon etilgan. «Yor-yor»lar nikoh to'ylarining ikkinchi bosqichi – qiz uzatish kechasi aytiladi. «Yor-yor» nafaqat o'zbeklarda, balki qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi turkey xalqlarda ham keng tarqalgan.«Yor-yor»larning mavzu doyrasi juda keng bo'lib, unda goh hazil, goh quvnoq, goh yengil yumor, goh achchiq hajviy ohanglar uchraydi. Bu narsa turmushga chiqmagan qizning, o'tkazilayotgan to'yning va nihoyat uylanayotgan yigitning axloqiy xislatlari, jamiyatda tutgan mavqei, insoniy fazilatlar kabi ko'pgina jihatlari bilan shartlangan. Barcha turdagi «yor-yor»larning ohangi asosida muayyan metroritmik tartibga solgan tor diapazonli kuylar uyg'unligi yotadi. Ularning har birio'zining kuy tuzilish tartibi, ohang xarakteri, ritmi, ijro uslubi, shevasi va emotsional ta'sirchanligi bilan farq kiladi.

**Mehnat qo'shiqlari** faqat mehnat jarayonida: qo'sh haydashda, hosil ko'tarishda, paxta terimida, charx yigirishda, ov qilish vaqtida, meva terishda va boshqa vaqtlarda aytiladi. Bu qo'shiqlarda inson kechinmalari, mehnat, ish turi, tabiat hodisalariga qiyos etilib ifodalangan.

**Marosim qo'shiqlari** folklorshunoslikning eng muhim omillaridan xisoblanadi. Har bir odat, marosim va an'ana o'zining tarixiy poydevori va ildiziga egadir. Ularning xar biri o'zidan-o'zi paydo bo'lmagan. O'zbek marosim qo'shiqlari ikki katta turkumga ajraladi. Bu turkumlar, o'z navbatida, turmushdagi vazifalari hamda poetik tabiati bilan farqlanuvchi xilma-xil janrlarni o'z ichiga oladi. **Birinchi** – mavsum marosimlari bilan bog'liq fol'klor janrlari. **Ikkinchi** – turkumdagi marosim, ommaviy maishiy turmush bilan bog'liq xolda ijro etiladi.

**Allalar** onalarning jigarband farzandlariga qilgan hasratlaridir. Qadimda allalar inson mexr-muxabbati bilan siynasi to'la onalarning orzu-umid sadolari, vafosiz, zolim erlarga, jafokor zamonga, toshbag'r ota-onaga bildirilgan g'azab va noroziliklardan iborat

bo'lgan. Ularga katta qalin badaliga sotiladigan qiz, cho'ri, kanizak, sevgilisidan zulm bilan ajratilgan ma'shuqaning nola-faryodlari eshitilardi. Hozirgi allalar esa butunlay boshqacha zamonaviy mazmun kasb etadi.

**Laparlar** esa boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi.

**Termalar** o'zbek musiqa fol'klorining mustaqil janrlaridan biri termadir. Termaning lug'aviy ma'nosi tanlangan, saylangan, terib, tanlab tizish demakdir. Dostonchi baxshi shoirlar ko'pchilik yig'ilgan joylarda dostonlardan parchalarniturli mavzulardagi 10 – 12 misralardan 300 – 350 misragacha bo'lgan she'rlarni kuylaydilar. Bu terma deb yuritiladi

**Yalla** o'zbek musiqa janrida aloxida o'rin egallaydi. Odatda, yalla qo'shiq va raqs jo'rligida ijro etiladi. O'zbek xalq qo'shiqlarining janrlari tarkibi boy va xilma-xildir. Ular bizga xalqimizning uzoq o'tmishidan xabar beruvchi vositalardan biri bo'lib, ijtimoiy hayot va madaniy muhit davomida doimo bizga hamroqdir. Insoniyat bor ekan ular ham mavjud bo'laveradi hamda har bir insonga ma'naviy ozuqa va ruhiy orom bag'ishlab boradi. Shu bois ular tarixiy madaniy va badiiy-estetik qimmatini bilan ahamiyatlidir.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.

2. Mirzayev T, Sarimsoqov B. «O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi».

3. Toshkent O'qituvchi 1990 yil;

4. Ibrohimov O.O'zbek xalq musiqasi ijodi. I qism. T. 1994 y.

5. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, T., 1990; Abdullayev RT.Yunusov R.

6. Karomatov F., O'zbek xalq musiqasi merosi, 1—2kitob, T., 1983;

7. Ражабов Т. И. Тематическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3. – С. 61-63.

8. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, T., 1990; Abdullayev RT.

9. Aloviya. M.O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. T. 1974 y.

10. O'zbek xalq musiqasi. III tom. T.1954 y.

### **MILLIY MUSIQA SAN'ATIMIZ RIVOJIDA MAQOMLARNING O'RNI** **Ismoilova M.E.,** Qarshi Davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodii.

O'zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o'zining qadimiy ilm – fani, adabiyoti, san'ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo'shgan buyuk millatdir. Milliy ma'naviyatimiz rivojida musiqa ham muhim o'rin tutadi. Milliy musiqa san'atning eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan .

Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi.

## МУНДАРИЖА

<b>Хамидов О.Х.</b> Миллий меросимиз ва Бухоро мусиқа фольклори	4
<b>О.С.Қахҳоров.</b> Ўқувчиларга ўзбек мусиқа фольклорини ўргатишнинг инновацион усуллари	5
<b>С.Қ.Қахҳоров.</b> Номоддий маданий меросимизда халқ мусиқа ижодининг ўрни	7
<b>1-ШЎЪБА. МИЛЛИЙ МЕРОС МАЗМУНИДА МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ТАРАҚҚИЁТИ</b>	
<b>Мадримов Б.Х.</b> Ўқувчиларни миллий мерос мазмунида тарбиялашда маданият ва санъатнинг аҳамияти	9
<b>Сафаралиев Б.С.</b> Страницы истории благотворительной деятельности творческой интеллигенции России в Средней Азии	12
<b>Раимжонов С.Ў.</b> Эстетик маданиятни ёшларни тарбиялашдаги аҳамияти	19
<b>Ткачук И. Б.</b> Духовно-нравственные основы воспитания молодежи	21
<b>U.M.Mirshaev.</b> Musiqa orqali milliy ma'naviyatimiz tarixini o'rganish	25
<b>А.А.Ережепов.</b> Қарақалпақ бақсышылық мектеплериниң қәлиплесип раўажлануы тарихы	28
<b>А.Хидиров.</b> Талабаларга мақомларни ўргатишнинг назарий ва амалий масалалари	30
<b>G.Istamova.</b> Xorazm dutor maqomlarining kelib chiqish tarixi	32
<b>R.E.Otamurodov.</b> O'zbek musiqa merosiga bir nazar	36
<b>N.K. Nurullayeva, Do'stov S.D.</b> O'zbek xalq qo'shiqlarining tarixiy taraqqiyoti	38
<b>Ismoilova M.E.</b> Milliy musiqa san'atimiz rivojida maqomlarning o'rni	41
<b>2-ШЎЪБА. БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ БОРАСИДАГИ ЁНДАШУВЛАРДА МУАММО ВА ЕЧИМЛАР</b>	
<b>Б. Мустафоев.</b> Бухоро мусиқа фольклори - маънавий тарбиянинг муҳим воситаси	44
<b>Соковиков С. С.</b> Этноджаз в музыкальной культуре Узбекистана: синтез традиции и современности	46
<b>Т.И.Ражабов.</b> Халқ мусиқа мероси миллий мусиқий таълимнинг асоси сифатида	50
<b>Мартынова Н. Э.</b> К проблеме сценического воплощения фольклорного материала: соотношение музыки и танца в русском песенно-хореографическом фольклоре	53
<b>D.Y.Ro'ziyev.</b> O'yin-qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati	58
<b>Ражабов А.</b> Бухоро мусиқа фольклорининг бугунги кундаги аҳамияти	61
<b>Ҳасанов Ҳ.Р.</b> Ёшларни маънавий-ахлоқий руҳда тарбиялашда, халқ педагогикасининг тарбия усулларида фойдаланиш	64
<b>Қурбонова Моҳигул Шониёзовна.</b> Болаларнинг мусиқани бадиий ҳис этишларида фольклор жанрининг имкониятлари (1-синф болалари мисолида)	65
<b>Muratova D.O'.</b> Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning pedagogik asoslari	67
<b>3-ШЎЪБА. ЁШЛАР ТАРБИЯСИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ НЕГИЗЛАРИ</b>	
<b>Дубских Т. М.</b> Танцевальная культура народов Челябинской области в	70